

"Kitobdan yaxshiroq do'st yo'q jahonda"

Sharqning buyuk mutafakkiri, shoir Abdurahmon Jomiyning bu fikri topib aytilgan haqiqat. O'zinga ravo ko'rganni o'zgaga ham ravo ko'r degan hadisnamo o'git ham bejiz emas. Bu moddiy ne'matga emas, balki ma'naviy yaralmaga ham xosligini inkor etish mumkin emas. Kitob na shunday ma'naviy mo'jiza. Kitobga mehri ustuvor bo'lgan kitobsevar insonning o'zgalar ham o'zi mutolaa etayotgan kitoblardan bahramand bo'lishini chin dildan istashi tabiiy. 4 - Talabalar turar joyida 2021-yil 26 -fevral kuni "Kitob o'rniga kitob" ko'ngillilar aksiyasi o'tkazildi.



Tadbirdan maqsad talabalarni kitobxonligini oshirish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi uchun kitob o'rniga qo'yilgan kitoblardan foydalanishdir. Ko'ngillilar aksiyasida "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani A.Fatxullaev dekan o'rnbosarlari, fakultet xotin-qizlar kengashi raisi Z. Beknazarova hamda fakultet professor-o'qituvchilari qatnanashib kitoblar tuhfa etishdi. Talabalar turar joyida yashovchi talabalar ham qatnashib, o'qish uchun kitoblar olib aksiyadan mamnun bo'lishdi. Ko'ngillilar aksiyamiz bir oy davom etadi. Tadbirni tashkillashtirishda tarbiyachi-pedagog N.Isokulovaning xizmatlari katta bo'ldi.

TIQXMMI matbuot xizmati